

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIShLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QIShLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari» kafedrasi
5620200-Agronomiya ta'lif yo'nalishi
bakalavriat bitiruvchisi

ISOQOV JAXONGIR ILXOMOVICH NING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga kaliyli
o'g'it turlarining ta'siri**

Ilmiy rahbar, katta o'qituvchi _____ Jumayev Sh.M.

Ishko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi.
«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrasi mudiri,
professor _____ K.M.Mo'minov
«___» _____ 2013 yil

Agronomiya fakulteti dekani
dotsent _____ M. A. Hayitov
«___» _____ 2013 yil

SAMARQAND-2013

Mundarija

	Kirish	
1	Adabiyotlar sharhi	
2	Kaliyning o'simliklar hayotidagi ahamiyati va hosil tarkibidagi miqdori	
3	O'simliklarni kaly bilan oziqlanishi	
4	Kaliyli o'g'it turlari	
5	Kaliyli o'g'it turlarini g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va xosildorligiga ta'siri	
6	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari.	
7	Bosh maqsadimiz keng kulamli islohatlar va modernizasiya yo'lini qattiyat bilan davom ettirish	
8	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda mexnatni muxofaza qilish	
	Xulosa va tavsiyalar	
	Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati	
	Ilova (internet ma'lumotlari)	

Kirish

Respublikamizda dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Ma'lumki, deqonchilikning intensiv rivojlanishini ta'minlaydigan omillardan biri ekinlarni o'g'itlash hisoblanadi.

Chunki hosilning deyarli yarmi o'g'itlar hisobiga yetishtiriladi. Umuman o'g'itlarning har birining o'z o'rni bor. Azot ekinlarning o'sishi va yosharishini, fosfor hosildorligini oshirib pshishini tezlashtiradi, kaliy esa mahsulot sifatini yaxshilaydi, ekin chidamliligin kuchaytiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda ekinlardan mo'l va sifatli hamda ertagi hosil yetishtirish dolzarb vazifaga aylandi. Shu boisdan qishloq xo'jaligining asosiy – tarmog'i paxtachilikka e'tibor va talab yanada kuchaydi. Bu esa o'z navbatida o'g'itlarga bo'lgan e'tibor, extiyoj yanada ortadi.

Ma'lumki, dehqonchilikda tuproq unumdorlik darajasining keskin pasayishiga sabab bo'lgan omillar ekin o'zlashtiradigan xarakatchan fosfor va almashinuvchi kaliyning keskin kamayishidir.

G'o'za maydonida oziq moddalarning qo'llanilishi va sarflanishidagi me'yorini saqlash uchun tuproqdagi ozuqa elementlari balansini ta'minlash lozim. Buning uchun tuproqdagi ozuqa elementlari miqdorini yetarli darajaga yetkazish kerak.

Ilmiy – tadqiqotlar va ilg'or tajribalarga qaraganda, paxta yetishtirishda har 100 kg azotli o'g'it hisobiga 70 kg fosfor va 50 kg kaliy berilsa, tuproq eritmasi teng (neytral) holatda bo'lib, paxta hosili mo'l va sifatli bo'ladi. G'o'za rivojlanish jarayonida uning ildiz tizimi mineral o'g'itlardan samarali foydalanishning muqobil yo'li, ularni o'simlikning ildiz tizimi rivojlanadigan tuproq qatlamiga joylashtirishdir.

Ammo, mineral o'g'itlarni solish texnologiyasi va texnikasi takomillashmagan, yerdan foydalanish madaniyatining kam ekanligi oqibatida o'g'itlarning samaradorligi past bo'lmoqda.

Respublikada, ayniqsa uning ayrim viloyatlari, tumanlari, xo'jaliklarida qishloq xo'jalik maxsulotlarini ko'paytirish, ularning iqtisodiy samaradorligini

oshirish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida deb bo'lmaydi. Bu ayniqsa paxta xom ashyosiga xosdir.

Kaliy o'g'itlar bugungi kunda dehqonchilik qilinadigan tuproqlarning unumdorligini oshiruvchi asosiy manbalardan biri xisoblanadi. Respublikamiz dehqonchiligidagi yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlarining kaliyga bo'lgan talabig 60-70 yillarigacha tuproqdagi kaliy zahiralari xisobiga qondirilgan bo'lsa, keyinchalik g'o'za va boshqa ekinlar uchun ko'plab azot-fosforli o'g'itlarni qo'llash natijasida kaliyli o'g'itlarning samaradorligiga e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirilishida yuqori me'yordagi azot-fosforli o'g'itlarni hamda jadal agrotexnologiyalarni qo'llash tufayli ekinlar hosildorligi, ayniqsa, paxta xosildorligi ortdi, bu esa, tuproq tarkibidan ko'plab kaliyni o'zlashtirilib ketilishiga olib keladi.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan, jumladan, g'o'zadan yuqori paxta hosili va sifatli tola yetishtirishda kaliyli o'g'itlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Tuproqda kaliy yetishmasligi, nafaqat paxta hosili va tola sifatini pasaytirib yuboradi, shu bilan bir qatorda qo'llanilgan azotli va fosforli o'g'itlar samaradorligini ham keskin kamaytiradi. Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishda yuqori me'yordagi azotli-fosforli o'g'itlarni hamda jadal agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida ekinlar hosildorligi, ayniqsa, paxta hosildorligi ortdi, bu esa tuproqlar tarkibidan ko'plab kaliyni o'zlashtirilib ketilishiga sabab bo'ldi. Buni paxta hosili bilan kaliy elementini azot bilan teng miqdorda, ba'zan undan ham ko'proq miqdorda o'zlashtirilib ketilishi bilan izohlash mumkin. Bu esa, tuproqda kaliy yetishmovchiligidagi olib keladi, natijada g'o'zaning o'sishini susaytiradi va unda asosiy rivojlanish dvrularining o'tash muddatlarini kechiktiradi, buning oqibatida paxta hosili keskin kamayib ketadi.

Bir qator ilmiy-tadqiqot natijalaridan ma'lumki, paxta hosili ortib borgan sari kaliyli o'g'itlarning ahamiyati oshib bormoqda. Buni paxta hosili bilan kaliy elementini azot bilan teng miqdorda, ba'zan undan ham ko'proq miqdorda o'zlashtirilib ketilishi bilan izohlash mumkin. G'o'za o'zining barcha o'sish va

rivojlanish davrlarida oziq moddalarga juda talabchan bo'ladi. Ma'lum rivojlanish davrida esa ayrim oziq elemntlariga bo'lgan talab yanada ortadi. Aynan shu davrda ehtiyoj sezilgan oziq elementining tuproqda yetishmasligi, o'simlikning o'sishini susaytiradi va g'o'zaning asosiy rivojlanish davrlarining o'tish muddatlarini orqaga suradi, buning oqibatida paxta hosili keskin kamayib ketadi.

Ma'lumotlarni ko'rsatishicha, bir tonna hosilini yaratish uchun g'o'za bir gektar maydondan o'rtacha 30 dan 70 kg gacha azot, 10 dan 20 kg gacha fosfor va 30 dan 80 kg gacha kaliy o'zlashtiradi. Shunga ko'ra, ayrim hollarda paxta hosili bilan birgalikda kaliyni o'zlashtirilib ketilishi azotga nisbatdan yuqori bo'ladi . Shuni alohida ta'kidlash kerakki, g'o'za tomonidan o'simlik uchun layoqatli bo'lgan shakldagi kaliyni o'zlashtirilishi bilan, uning o'rni almashinmaydigan kaliy shakli hisobiga to'lib boradi. Ammo, kaliyning bu hildagi tasarruf etilishi g'o'zaning kaliyga bo'lgan talabini hamma vaqt ham qondira olmaydi.

Demak, qishloq xo'jalik ekinlari, ayniqsa, paxta hosildorligini oshirishda boshqa mineral o'g'itlar kabi kaliyli o'g'itlarning ham kata ahamiyat kasb etishiga qaramasdan, fermer xo'jaliklarida bugungi kunga qadar kaliyli o'g'itlardan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratilmasdan kelinmoqda.

Shuning uchun ham, bizning bitiruv malakaviy ishimiz asosiy maqsadi O'zbekiston respublikasi tuproqlari sharoitida paxta yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tuproqlarining o'simlikka layoqatli kaliy bilan qay darajada ta'minlanganligini aniqlash, ushbu sharoitda qo'llanilgan kaliyli o'g'itlarning xar xil me'yorlarini va kaliyli o'g'itlarning turlarini g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini aniqlash va olingan natijalar asosida kaliyli o'g'itlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar taylorlashga qaratilgan.

1.Adabiyotlar sharhi

Respublikamizda paxta yetishtiriladigan xo'jaliklarning tuproqlari yalpi kaliy bilan azot va fosforga nisbatan yaxshi ta'minlangan bo'lsada, paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining hosili bilan tuproqdan ko'p miqdorda olib chiqib ketilishi natijasida uning miqdori keskin kamayadi, bu esa kaliy o'g'itlarning qo'llanishini taqoza etadi. G'o'zaning o'sish va rivojlanishi uchun esa kaliy oziqa moddasi azot va fosfor kabi g'oyatda zarurdir. Kaliy g'o'zaning moddalar almashinivuda faol qatnashadi, o'sish va yangi xujayralarning paydo bo'lish qismlarida to'planadi. Belousov M.A. (1995 y) Protasov P.V. (1975) va Madraimov I. (1980 y) lar o'tkazgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, g'o'zada hosil to'planishida va pishib yetilishida kaliy bilan normal oziqlantirish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan, jumladan, g'o'zadan yuqori paxta hosili va sifatli tola yetishtirishda kaliyli o'g'itlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Tuproqda kaliy yetishmasligi, nafaqat paxta hosili va tola sifatini pasaytirib yuboradi, shu bilan bir qatorda qo'llanilgan azotli va fosforli o'g'itlar samaradorligini ham keskin kamaytiradi. Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishda yuqori me'yordagi azotli-fosforli o'g'itlarni hamda jadal agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida ekinlar hosildorligi, ayniqsa, paxta hosildorligi ortdi, bu esa tuproqlar tarkibidan ko'plab kaliyni o'zlashtirilib ketilishiga sabab bo'ldi. Buni paxta hosili bilan kaliy elementini azot bilan teng miqdorda, ba'zan undan ham ko'proq miqdorda o'zlashtirilib ketilishi bilan izohlash mumkin. Bu esa, tuproqda kaliy yetishmovchiligiga olib keladi, natijada g'o'zaning o'sishini susaytiradi va unda asosiy rivojlanish dvrlarining o'tash muddatlarini kechiktiradi, buning oqibatida paxta hosili keskin kamayib ketadi.

Paxtachilikda kaliyli o'g'itlarning samaradorligini o'rganishda taniqli agroximik va fiziologik olimlar: S.A.Kudrin (1947), P.V.Protasov (1981), M.A.Belousov (1964), I.I.Madraimov (1972) va boshqalar O'zbekiston sharoitida kaliyli o'g'itlarni qo'llash bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirganlar. Ular tomonidan o'simlmkda kechadigan fiziologik-biokimiyoviy jarayonlarni o'tishda

kaliyning muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Bir valentli kation sifatida kaliy, plazma kolloidlarini fizik-kimyoviy holatini o'zgartiradi, ularning gidrofilligini oshiradi, plazmalarni suv ushlab turish qobiliyatini ko'taradi, o'simlmk suvni tejab sarflaydi va transpirasiya bir muncha kamayadi. Shuningdek kaliy, xujayra shirasi osmotik bosimini oshiradi va bu, o'z navbatida o'simliklarni sovuqqa, qurg'oqchilikga va turli kasalliklarga chidamliligini oshiradi. Demak, qishloq xo'jalik ekinlari, ayniqsa, paxta hosildolgini oshirishda boshqa mineral o'g'itlar kabi kaliyli o'g'itlarning muxim ahamiyat kasb etishiga qaramasdan, ko'pchilik fermer xo'jaliklarda bugungi kungacha kaliyli o'g'itlardan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratilmasdan kelinmoqda. Shuningdek, kaliyli o'g'itlarning paxtachilikdagi samaradorligini aniqlash bo'yicha xozirgi paytgacha olib borilgan asosiy ilmiy-tadqiqot ishlari tipik va och tusli bo'z tuproqlar sharoitida o'rganilgan, ammo karbonat-magniyli sho'rangan o'tloqi-bo'z tuproqlarda ushbu masala yetarlicha o'rganilmagan.

Aniqlanishicha, har yili kaliyli o'g'itlar gektariga 100 kg normada qo'llanganda tuproqda almashinadigan holatdagi kaliy miqdori oshgani holda, bu o'g'itlar yuqori normadagi azot va fosforli o'g'itlar bilan birgalikda ishlatilganda tuproqda almashinadigan shakldagi kaliyning to'planishi kuzatilmagan (Protasov, Qodirxo'jayev, 1981).

Qayerda kaliyli o'g'it muntazam ravishda berib borilmagan bo'lsa, o'sha yerda azot, fosfor va kaliy o'rtasidagi normal nisbat buziladi. Kaliy elementi kamayib ketgan tuproq g'o'zaning bu xildagi element bilan yaxshi oziqlanishini ta'min eta olmaydi. Shunga ko'ra kaliyli o'g'itlar me'yorini belgilashda tuproqdagagi almashinadigan kaliy miqdorini bilish, shu asosda g'o'zaga beriladigan kaliyli o'g'itlar normasini aniqlash kerak bo'ladi. Kaliyli o'g'itlar paxta tolasining texnologik xususiyatlarini yaxshilaydi va chigitning yog'dorligini oshiradi.

I.Madraimov (1974) ning kuzatishlariga qaraganda, g'o'za kaliy berilmasdan azot va fosforli o'g'itlarning yuqori dozasida o'stirilganda paxta tolasining texnologik xususiyatlari va ko'rsatkichlari keskin ravishda pasayib ketgan.

O'simlik yosh organlari tarkibida kaliy bo'lishi bilan ustunlikka ega. Kaliy barglarda va ko'payish organlarida, hujayra shirasida va plazmada ko'p bo'ladi. Kaliy asosan o'simlikda suvda eriydigan shaklda bo'ladi. Kaliy o'simlikning butun hayotida uning rivojlanishiga ta'sir qiladi, uglevodlar hosil bo'lishiga ko'maklashadi. O'simlik kaliy bilan yaxshi oziqlansa sovuqqa, qirg'oqchilikka va kasalliklarga chidamliligi oshadi.

U urug' hosil bo'lishi va

pishishini yaxshilaydi, o'simlikning azotdan ayniqsa ammaiakdan yaxshi foydalanishiga imkon beradi, o'simlikning yon ildizlari hosil bo'lishiga qulaylik tug'diradi (Dorofeyev va boshqa. 1983 y).

Derjavin L.M. (1992) aniqlashicha, mineral o'g'itlar hisobiga hosil shakllanishi 24 % ni tashkil etsa, bunda kaliy qatnashish hisobiga uning hissasi 19,8 % ni (mintaqaning tuproq – iqlimiga bog'liq holda 0,2 – 27 % gacha oralig'ida bo'ladi) tashkil etadi. Kaliyli o'g'itlarni tuproq yuzasiga solish uning samaradorligini 36 – 40 % kamaytiradi. Kaliyli va azotli o'g'it birgalikda ishlatilganda o'simlikning ulardan foydalanish koeffisiyenti 10 – 15 % ga, fosfor bilan ishlatilganda 5 – 10 % ga oshadi. Ular sug'oriladigan suv bilan birgalikda solinganda o'g'itdan oziq moddalarning foydalanish koeffisiyenti 20 – 30 % ga, hosildorlik 8 – 15 % ga oshadi, mehnatga harajat 25 % ga qisqaradi.

F.Xoshimovning ta'kidlashicha, kaliyning miqdori fosfor va azotga nisbatan 10 – 15 marotaba ko'p bo'ladi. Kaliyning 1 % mitoxondriya va xloroplast oqsillari tarkibiga kirib organoidlar strukturasini buzilishidan saqlaydi.

X.Jo'raqulov, Q.Ravshanov (2001) bergen ma'lumotlariga ko'ra, tuproqdag'i kaliy o'zlashtirilmaydigan va o'zlashtiriladigan shakllarda mavjud. Asosiy o'zlashtiriladigan shakli tuproq eritmasidagi erigan tuzlar xolida uchraydi. Bu umumiyl kaliy miqdorining 0,5 – 2 % ni tashkil etadi.

J.Xo'jayevning (1997) ta'kidlashicha, kaliy barg og'izchalarining ochilishi va yopilishiga ham ta'sir etadi. Yorug'likda kaliy og'izchalarining tutashtiruvchi hujayralarida 4 – 5 marta ko'payadi va suvni shimib olib turgor holatini kuchaytiradi. Bu esa og'izchalarining ochilishiga sababchi bo'ladi. Qorong'ida

kaliy tutashtiruvchi hujayralardan chiqaboshlaydi, turgor bosimi kamayadi va og'izchalar yopiladi.

M.A.Xayitov, F.X.Xoshimovlarning ta'kidlashicha, g'o'zaga kaliy yetishmay qolsa qari (eski) barglar chekasidan bolab erta sarg'aya boshlaydi, keyinchalik ularning chekalaridan boshlab qo'ng'ir (ba'zan zang simon nuqtali qizil) tus oladi va ma'lum muddatdan keyin barglarning chetlari nobud bo'ladi va yirtilganga o'xshab qoladi.

F.M.Belousov (1975), Protasov (1975) va I.Madraimov (1980) larning o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, g'o'zada hosil tugishida va pishib yetilishida kaliy bilan normal oziqlantirish muhim ahamiyatga egadir.

M.A.Belousovning (1975) bergen ma'lumoti bo'yicha, paxtachilikda kaliyli o'g'itlardan samarali foydalanishni o'rganish, tajriba stansiyalarining dalalarida va ishlab chiqarishdagi ekin maydonlarida 1936 boshlangan edi. O'sha yillarining o'zida kaliyli o'g'itlar hisobiga xo'jaliklarda paxta hosili anchagina oshadi. Bu ma'lumotlar asosida, paxta xosili gektaridan 25 va undan ortiqroq sentner bo'lganida, kaliyli o'g'itlarning ijobiy natijasi bor ekanligi haqida xulosa qilingan edi.

I.Madraimovning (1972) monografiyasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, kaliy ko'sak chanoqlarida, barglarida va poyada ko'p miqdorda saqlanadi. Chigitlarida kaliyning saqlanishi azotga qaraganda anchagina kamdir.

I.Madraimov, M.A.Belousov (1975) larning ta'kidlashicha, g'o'zaning kaliyga bo'lган extiyoji uning gulga kirib hosil tugish davrida yanada ortadi va sariq dog'lar kun sayin ko'payib boradi. G'o'za barg sistemasining hamma qismi qorayib, qurishi hamda to'kilishi kaliyning yetishmaganligidan dalolat beradi. Barglarning erta to'kilishi esa, hosilning kamayishiga va sifatiga ta'sir etadi.

R.Bozorovning (1989) o'tkazgan tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qadimdan sug'oriladigan o'tloq yerkarda kaliyning xarakatchan formalari miqdori ko'p jihatdan tuproqning mexanik tarkibiga bog'liqligini, agar tuproq tarkibi bir xil va o'rtacha qumoq tuproqdan iborat bo'lsa, yuqori qatlamda

kaliyning miqdori 1 kg tuproqda 312 mg/kg ligi va pastki qatlamlarida deyarli bir xilligini (240 va 200 mg/kg) ko'rsatdi.

M.Irnazarov (1986) ma'lumotiga ko'ra 1967–1985 yillarda Respublika miqyosida azotning kaliyga nisbati o'rtasa 1:0,3–0,36 bo'lib, kaliy balansining chuqur defisitiga tuproq unumdorligini pasayishiga, tuproq eritmasidagi, tuproq eritmasidagi oziqa moddalarning optimal nisbatlarini va g'o'zalarni balanssizlanmagan oziqlanishiga olib kelgan.

N.Zelenin, B.Tillabekov (1993) larning ta'kidlashicha, kaliyli o'g'itlarning me'yorlari tuproqdagagi eruvchan kaliy va azotga nisbatini xisobga olgan holda aniqlanadi.

Drenajli, eroziyali hamda shag'alli yerlarida kaliyli o'g'itlar ikki marta chigit ekishdan oldin tuproqni tayyorlashda va shonalash fazasida, o'g'itning yillik normalari kichik bo'lsa, kaliyli o'g'itlar bir marta –shonalash fazasining boshlanishida yoppasiga tuproqqa solinadi. Sh.Nurmatov ma'lumoti (2003).

I.Madraimov (1972) o'zining monografiyasida O'zPITI tizimida o'tkazilgan ko'p sonli tajribalarida, azotli va fosforli o'g'itlarning xisobiga, paxta xosili gektariga 2 sentnerdan 6 sentnergacha o'sganini ko'rsatadi.

O.Ergashev (1984) 1977-1999 yilgacha o'tkazgan ko'p yillik tadqiqotlar asosida Andijon viloyati o'tloq tuproqlar sharoitida bedadan keyin dastlabki 4 yil davomida paxtani yetishtirishda gektariga N₃₀₀, P₂O₅–250, K₂O–150 kg berish zarurligini ko'rsatdi. Muallifning ta'kidlashicha gektariga 250 kg fosfor va kaliy 150 kg berilgan variantda nazoratdagagi hosilga qaraganda (39,7 s/ga) qo'shimcha olingan hosil 12,7 s /ni tashkil etadi.

F.Tursunovning (1984) ma'lumotiga ko'ra, Toshkent viloyatining o'zlashtiriladigan kaliy bilan kambag'al bo'lgan o'tloq tuproqlarda paxtachilikda kaliyli o'g'itlarni gektariga 250 kg solinganida eng katta samaradorlikka erishildi. Bunda qo'shimcha olingan hosil gektariga 5,5 s ni tashkil etagn. Gektariga K–125 kg berilgan variantda esa qo'shimcha 2,7 s hosil olingan. Kaliyni oshirilgan miqdorda gektariga 500-600 kg ishlatilishi samarasiz ekanligi aniqlandi.

Akademik M.Muxammadjanov va Zokirovlarning (1995) ta'kidlashicha, kaliy oqsil tarkibiga kirmasa ham, o'simlik organizimini faoliyatida muhim rol o'ynaydi. O'simlikdagi kaliyning ko'p qismi mineral shaklda, ozroq qismi xujayraning struktura elementlariga so'rilgan holda bo'ladi. Kaliy plazma kolloidlarining va xujayra devorlarining namlik darajasini oshiradi.

Q.Ravshanovni (2002) ma'lumotiga ko'ra o'simliklarda kaliyning miqdori 0,9 % ga teng. O'ismliklar to'qimasida KCl , $KNSO_3$ K_2NRO_4 shaklida uchraydi. Kaliyning miqdori tuproqda azot va fosforga nisbatan 10 – 15 marta ko'p bo'ladi, uning xujayradagi miqdori tuproqdagiga nisbatan 100 marta ko'pdir.

N.A.Maksimov (1998) fikricha o'simlik uchun kaliyning hamma kationlaridan juda oz miqdorda kerak bo'ladi, va uning uchun tuproqlarda kaliyli o'g'itlarni ishlatish ekinlar xosiliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

F.Xoshimov, O.Nazarovlarni (2007) ta'kidlashicha, kaliy o'simlikda uglevodlar hosil bo'lishida ishtirok etib, g'o'zani sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamligini oshiradi. U o'simlikni yerga yotib qolishini kamaytirib, poyani mustahkamlaydi, har xil kasalliklarga chidamligini oshiradi.

R.Orlov, N.Xalilov (2005) larni takidlashicha, qishloq xo'jalik ekinlarining kaliy bilan ta'minlanishi tuproqdagagi kaliy miqdoriga, tuproq muhitiga va tuproq kompleksidagi qatlamlar turiga bog'liq. Misol uchun, karbonatli tuproqlarda, tuproq muhiti rN-7,8 undan almashinadigan kaliy miqdori 250 mg/kg bo'lganda, ham tuproqqa kaliyli o'g'it solinsa hosildorlik oshadi. Tuproqda 250 mg/kg almashinadigan kaliy bo'lsa, tuproq hajmi og'irligi $1,35 \text{ g/sm}^3$ bo'lganda haydalma qatlamda 1 ga maydonda $800\text{--}1000 \text{ kg}$ almashinadigan kaliy (K_2O) bo'ladi. Kaliy tuproqda ko'p bo'lishiga qaramasdan kaliyli o'g'itlar solinganda ekinlar hosildorligining oshishiga sabab tuproqda kalsiy (Sa^{++}) kationi ko'p va u kaliyni o'zlashtirilishga antagonist sifatida to'sqinlik qiladi. Solingan kaliy o'g'it kationlar disbalansini kamaytiradi va ma'danli o'g'it sifatida solingan kaliyni o'simlik yengil o'zlashtiradi.

B.S.Musayevning (2001) ta'kidlashicha, O'rta Osiyo tuproqlarida, ayniqsa paxta yetishtiriladigan maydonlarda, kaliyli o'g'itlarni qo'llashning ahamiyati kattadir.

F.Xoshimov, O.Nazarovlarni (2007) ma'lumotiga ko'ra G'o'zaning kaliyni o'zlashtirishi usuv davri bo'yicha quyidagicha kechadi: shonalashgacha (31 kun) – 2,8 %, shonalashdan gullahsgacha (o'nib chiqqandan so'ng 58 kun mobaynida) – 17,8 %, birinchi terim boshlanishida – 100 %. G'o'zaning kaliyni o'zlashtirish davri nisbatan cho'zilgan.

F.Xoshimov, O.Nazarovning (2007) ta'kidlashicha, paxtachilikda qo'llaniladigan K₂O o'g'itlarning samaradorligi tuproqdagi almashinadigan K miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, tuproqdagi kaliy viloyat miqyosida emas, balki tuman va hatto brigada doirasidagi ayrim dalalarda ham keskin o'zgarib turadi. Shuning uchun ham, g'o'zaga beriladigan kaliyli o'g'itlarni tuproqda K₂O miqdoriga qarab rasional normada ishlatish paxta hosildorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

B.S.Musayevning (2001) ma'lumotiga ko'ra Faqat qumli va yengil qumoqli tuproqlardagina kaliyli o'g'itlarni bahorda qo'llash mumkin. Sug'oriladigan sharoitlarda kaliy yillik me'yorining bir qismini nihollarni qo'shimcha oziqlantirish uchun ajratish yaxshi samara beradi. Respublikamizda paxta va boshqa ayrim texnikaviy ekinlarga belgilangan kaliy me'yorining 50 % i qo'shimcha oziqlantirish sifatida ishlatiladi.

A.E.Avliyoqulov, M.Tojiyev, G.Qurbanov va K.Tojiyevlarning (2007) ta'kidlashicha Surxon-Sherobod vohasining taqir-o'tloq tuproqlarida o'tkazgan tajribalarida istiqbolli «Denov» navidan tuproqga kaliy o'g'iti 100 kg/ga me'yorda berilganda yuqori hosil olingan.

B.T.Xofizovning (2007) ma'lumotiga ko'ra Surxondaryo viloyatini Qiziriq dara massivining och tusli bo'z tuproqlarida o'tkazgan tajribalarida ham g'o'zaning «Buxoro-6» navidan eng yuqori va sifatli hosil (40,6 s/ga) kaliyli o'g'itlarning me'yori 125 kg/ga miqdorida berilganda yaxshi natija olingan.

S.I.Maxsudovning (2007) ta'kidlashicha Buxoro viloyatida olib borgan tajribalaridan ma'lum bo'lishicha, g'o'zaning «Buxoro-102» navidan yuqori hosil har gettar maydonga kaliyli o'g'itlar me'yori 125 kg/ga berilganda olingan.

B.A.Xolmonovni (1995) tajribalarida, g'o'zadan eng yuqori paxta hosili (39,5 s/ga) va sifatlari urug' (26,1 s/ga) tuproqqa kaliyli o'g'itlarni me'yori -120 kg/ga bo'lgan variantda olinganligi aniqlangan.

O'.Soatov, N.Kimsanov va B.Niyozaliyevlarning (1996) tajribalarida kaliyli o'g'itlarning me'yori 120 kg/ga miqdorida qo'llanilganda eng yuqori hosildorlik (41,5 s/ga) ta'minlanganligi kuzatilgan.

A.E.Avliyoqulov va E.Donayevlarning (2000) ma'lumotlarida ham g'o'zaning «Termiz-42» navidan yuqori hosili yillik kaliyli o'g'itlarning me'yori – 125 kg/ga maqbul bo'lganda eng yuqori hosil olingan.

G.Qurbanovaning (2002) tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, g'o'zaning «Oqqurg'on-2» va «Armug'on» navlari parvarish qilinganda kaliyli o'g'itlar me'yori 100 kg/ga bo'lganda yuqori hosil olinganligi kuzatilgan.

A.Mamataliyevning (2004) o'tloq tuproqda o'tkazgan tajribalarida kaliyli o'g'itlar -100 kg/ga miqdorida berilib g'o'za hosildorligi 36,9 s/ga bo'lishi isbotlangan.

G.Satipov va E.Samandarovlarning (2004) Xorazm vohasining o'tloq-alluvial tuproqlarida o'tkazgan tadqiqotlarini ko'rsatishicha, kaliy-100 kg/ga me'yorda berilib, g'o'zaning «Mehnat» navida hosildorlik «175-F» naviga nisbatan 4-5 s/ga yuqori bo'lshi kuzatilgan.

T.Yaminov va O.Abdurahimovlarning (2007) Toshkent viloyatining Zangiota tumanida o'tkazgan tajribalarida eng yuqori hosil g'o'zaning «Mehr» navidan (35,0 s/ga), kaliyli o'g'itlar –60 kg/ga me'yorda bo'lishini aniqlagan.

E.Samandarovning (2005) o'tkazgan tajribalarida Xorazm vohasining o'tloq tuproqlariga kaliyli o'g'itlarning me'yori 70 kg/ga qo'llanilganda g'o'zaning «Mehnat» navidan 35,8 s/ga, «Mehr» navidan 33,0 s/ga, «175-F» navidan 30,0 s/ga, hosil olinishi isbotlangan.

Sh.Botirovning (2005) O'zPITI ni Surxondaryo tarmog'ining taqir tuproqlarida o'tkazgan tajribalarida g'o'zaning «Namangan-77» navidan kaliyli o'g'itlarning me'yollariga bog'liq holda quyidagicha hosil olingan -125 kg/ga berilib, o'rtacha 33,8 s/ga qadar oshishi aniqlangan.

Sodiqov va Xolliyevlar (2006) Farg'ona viloyatining bo'z tuproqlarida g'o'zaning yangi «S-4910» navidan yuqori (40-45 s/ga) hosil olish uchun kaliyli o'g'itlar me'yori: 125 kg/ga bo'lishi tavsiya qilingan.

O.Dyujev va K.Xommadovlar (1989) Turkmaniston Respublikasining kam sho'rangan, mexanik tarkibi yengil-qumoq tuproqlarida g'o'zaning «Ashxabod-25» navining o'g'itlash tizimini o'rganish bo'yicha o'tkazgan tajribalarida olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, eng maqbul nisbat kaliyli o'g'itlar me'yori -75 kg/ga miqdorida bo'lishi kuzatilgan.

Sh.Toshmuhammedov, S.Muslimov va F.Qodirxo'jayevlar (1990) Toshkent viloyatining qadimdan sug'oriladigan tipik-bo'z tuproqlarida g'o'zaning «Andijon-6» navidan yuqori paxta hosili (39,9 s/ga) olish uchun kaliyli o'g'itlar me'yорини -125 kg miqdorida bo'lishi zarurligini isbotlaganlar.

R.Rizayev va T.Duysenovlar (1990) Jizzax viloyatining mexanik tarkibi o'rtacha qumoq, bo'z-o'tloq tuproqlarida g'o'zaning «S-4727» navidan kaliyli o'g'itlar 125 kg/ga me'yorida qo'llanilganda, o'rtacha 48,4 s/ga hosil olinishini isbotlaganlar.

G.S.Yakvalxo'jayeva (1991) tipik bo'z tuproqlarda olib borgan tadqiqotlariga asoslanib, g'o'zaning «S-6524» va «Qирг'изистон-3» navlari uchun kaliyli o'g'itlarning me'yolari -100 kg/ga bo'lishini tavsiya etgan.

M.Xalilovning (1997) tajribalarida ham g'o'zaning «Buxoro-6» navidan eng yuqori hosil kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori 100 kg/ga miqdorida bo'lishini kuzatgan.

S.Ostonov va R.Oripovlar (2000) Samarqand viloyatining o'tloq-bo'z tuproqlarida o'tkazgan tajribalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, g'o'zaning

«Qirg’iziston-3» va «Oqdaryo-5» navlari chigiti plyonka ostiga ekilganda kaliyli o’g’itlarning me’yori –100 kg/ga bo’lishini tavsiya qilganlar.

T.Tursunov va N.O’razmatovlarning (2001) ta’kidlashicha Farg’ona viloyatining o’tloq-soz, mexanik tarkibi og’ir, kuchsiz sho’rlangan tuproqlarida o’tkazgan tajribalarida g’o’zaning «Farg’ona-5» navi uchun maqbul kaliyli o’g’itlar me’yori 100 kg/ga bo’lishi aniqlangan.

B.Jo’raqulov va A.Qodirovlarning (2002) ma’lumotiga ko’ra Surxon-Sherobod vohasi taqir tuproqlarida yer osti suvlarining sathi o’rtacha 2,0-2,5 metr bo’lgan dalada o’tkazgan tajribalaridan ma’lum bo’lishicha, «Termiz-31» navidan eng yuqori hosil (43,8 s/ga) kaliyli o’g’itlar –125 kg/ga me’yorda bo’lishi aniqlangan.

G’.Bekmirzayevning (2007) takidlashicha Toshkent Irrigasiya va meliorasiya instituti tajriba xo’jaligida bajargan tajribalarini ko’rsatishicha, kaliyli o’g’itlar: 100 kg/ga me’yorda berilganda g’o’zaning «Namangan-77» navidan eng yuqori hosil olinadi va «Yulduz», «Mehr» hamda «Mehnat» navlariga nisbatan hosildorligi 3,7-4,6 s/ga yuqori bo’lishi kuzatilgan.

M.Tojiyev, G.Qurbanova va boshqalarning (2003) ma’lumotiga ko’ra O’rta tolali g’o’za navlaridan yuqori hosil olish uchun kaliy 100–125 kg/ga me’yorlarini qo’llash ma’qul, deb topilgan.

O.Akramov (2005) ta’kidlashicha sug’oriladigan o’tloqi tuproqlar sharoitida g’o’zaning «S – 6524» navidan yuqori va sifatli hosil olish uchun kaliyli o’g’itlar me’yori kaliy 100 kg/ga bo’lishini tavsiya etgan.

A.Avliyoqulov, A.Battalov, J.Ahmedov va boshqalarning (2003) ma’lumotiga ko’ra taqir, taqir botqoq, bo’z tuproqlar sharoitida g’o’zaning «Buxoro – 6» navidan 30 sentnerdan yuqori va sifatli hosil olish kaliyli o’g’itlarning yillik me’yori kaliy 125 kg/ga bo’lishini tavsiya qilgan.

R.Oripov, N.Xalilovlarning (2005) ma’lumotiga ko’ra, Azot bilan kaliyning nisbati 1:0,5 bo’lganligi ma’qul. Kaliy me’yorining 50 % shudgor oldida berilsa qolgan qismini shonalash davrida oziqlantirishda berishni tavsiya etadi.

Sh.Botirovning (2003) ta'kidlashicha, «Namangan -77», «Termiz-31» navlarining mineral o'g'itning yillik me'yori variantlarga ko'ra kaliy 100 kg/ga ni bo'lganda hosildorlik 36,4 s/ga bo'lishi kuzatilgan.

B.Xalmanov, V.Avtonomov, A.Kushaliyevlarning (2005) ma'lumotiga ko'ra g'o'zaning o'rta tolali «S-6524» navidan tipik bo'z tuproqlar sharoitda yuqori va sifatli hosil yetishtirish uchun kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori 120 kg/ga miqdorida bo'lishini tavsiya qilgan.

M.Istamov, A.Avliyoqulov va B.Xafizovlarning fikricha «Denov» navidan 30,1 s dan yuqori va sifatli hosil olish uchun kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori 125 kg/ga berilishini tavsiya etadi.

A.Qashaqarov, N.Qashaqarov, K.Qashaqarovlarning (1991) fikricha kaliyning ahamiyati bargdag'i uglevod almashinuvida muhim rol o'ynaydi, fotosintez jarayonida hosil bo'ladigan uglevodlarga, shuningdek uglevodlarning qayta tiklanishi va o'simlik organlari bo'yicha harakatiga yaxshi ta'sir etishini takidlagan.

E.T.Shayxov, N.Normuxamedov, A.I.Shleyxer va boshqalarning (1990) tajribalarida kaliy o'g'itlarining yillik normasi, odatda, azotnikiga nisbatan 50 % miqdorida berish maqsadga muvofiq hisoblanadi, buning yarmini shudgorlash oldidan solish tavsiya qilinadi. Yillik norma 100 kg dan kam bo'lsa uni faqat g'o'zaning o'sish davrida berishni tavsiya etadi.

R.Oripovning (2000) fikricha kaliyli o'g'itlarning yillik normasini 50 foizi shudgorlashdan ilgari va qolgan 50 foizi g'o'za shonalaganda solinadi deb takidlagan.

2. Kaliyning o'simliklar hayotidagi ahamiyati va hosil tarkibidagi miqdori

Kaliy tadqiqotchilarga o'simlik ishqori - *potash* sifatida azaldan ma'lum bo'lsada, uni sof holda 1807 yilda kimyogar olim Devi ajratib oldi. O'simlik, tuproq va o'g'it tarkibidagi kaliyni K_2O ga aylantirib ifodalash qabul qilingan.

Jonli va jonsiz tabiatda kaliy uchta izotop: ^{39}K (93,08 %), ^{40}K (0,011 %) va ^{41}K (6,91 %)larning aralashmasi sifatida uchraydi.

O'simliklardagi kaliyning asosiy qismi sitoplazma va vakuolalarda bo'lgani holda, yadroda uchramaydi. Yalpi kaliyning 20 % ga yaqini o'simlik xujayralarining sitoplazma kolloidlari tomonidan almashinuvchan shaklda, 1 %i mitoxondriyalar tomonidan almashinmaydigan shaklda yutiladi. 80 % ga yaqin kaliy hujayra shirasida ion shaklida bo'lib, organik birikmalar tarkibiga kirmaydi. Shuning uchun uzoq va shiddatli yomg'irlar ta'sirida barglardagi (ayniqsa eski barglardagi) kaliyning ancha qismi yuvilib ketadi.

Xloroplastlar va mitoxondriyalarda to'planadigan kaliy ularning tuzilishini maromiga keltiradi, fotosintetik va qaytariluvchan *fosforlanish* jarayonlarida energiyaga boy ATF lar hosil bo'lishiga yordam beradi. Kunning yorug' qismida kaliy ionining xujayra kolloidlari bilan bog'lanishi kuchayadi, kechalari aksincha, susayadi, natijada uning bir qismi ildiz tizimi orqali tuproqqa ajraladi.

Kaliy o'simlik tanasining barcha qismlarida bir tekis taqsimlanmaydi, ko'proq qismi modda almashinushi va xujayra bo'linishi jadal ketadigan meristema va novdalarda to'planadi. Gul changchilarida ham kaliy miqdori ko'p. Masalan, makkajo'xori changchilari kuli tarkibidagi kalsiy, magniy, oltingugurt va fosfrorning yig'indisi 25 % ga yetmagani holda,birgina kaliy miqdori 35,5 % ni tashkil qiladi.

Kaliy birinchi navbatda sitoplazma kolloidlarining disperslanish darajasini oshirishi bilan ularning gidratlanishini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida o'simlikning suvni tutib turish qobiliyatini oshiradi va qisqa muddatli qurg'oqchiliklarni yengib o'tishiga yordam beradi.

Kaliy tanqisligi natijasida oddiy uglevodlarning ancha murakkab uglevodlar (di- va polisaxaridlar)ga aylanishi susayadi. U qand moddalarini barglardan o'simlikning boshqa qismlariga oqib o'tishini kuchaytiradi, uglevod almashinushi fermentlari, jumladan *amilaza* faolligini oshiradi. Kaliy tanqisligida bir qator

fermentlarning faolligi susayadi, o'simlikda uglevod va oqsil almashinuvi buziladi, qand moddalarning asosiy qismi nafas olish jarayoni uchun sarflanadi, puch donlar shakllanadi va donli ekinlar hosildorligi keskin kamayadi.

Kaliy o'simliklarda bir qator vitaminlarning (masalan tiamin va riboflavin) sintezlanishi va to'planishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kaliy xujayra shirasining osmotik bosimini oshiradi, shu tufayli o'simliklarning sovuqqa chidamliligi oshadi.

Kaliy bilan yetarli darajada oziqlantirilgan o'simliklarning turli kasallikkarga g'alla ekinlarining qorakuya va zang kasalliklari, sabzavotlar, kartoshka va ildiz mevalilarning chirish kasalligiga chidamliligi kuchayadi.

Kaliy - kalsiy va magniy elementlari qatori qishloq xo'jalik ekinlari tomonidan ammiak shakldagi azotning o'zlashtirilishiga yordam beradi.

O'simliklarda kaliy yetishmasligining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: qari (eski) barglar chekkasidan boshlab erta sarg'aya boshlaydi, keyinchalik ularning chekkalari qo'ng'ir (ba'zan zangsimon nuqtali qizil) tus oladi va ma'lum muddatdan keyin barglarning chetlari nobud bo'ladi va yirtilganga o'xshab qoladi (14-17-rasmlar).

Kaliy tanqisligi ayniqsa kaliysevar o'simliklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, kaliy yetishmaganda o'simliklarda modda almashinuvining barcha tomonlarini qamrab oladigan aksariyat biokimyoviy jarayonlarning kechishi sekinlashadi.

Kation sifatida yutilgan kaliy o'simlik hujayrasida zaryadlangan ion holida bo'lib, hujayra moddalari bilan juda kuchsiz bog'lanadi va hujayradagi noorganik anionlar va polielektrolitlarning manfiy zaryadlarini mo'tadillashtirishda asosiy *raddiion* hisoblanadi. Shuningdek u ionlar *assimetriyasini* va hujayra hamda muhit o'rtasida elektr potensiallari ayirmasini yuzaga keltiradi. Ayni xususiyatlar kaliyga o'simliklarning mineral oziqlanishida o'ziga xos funksiyalarini yuklagan bo'lsa, ajab emas.

Ma'lumki, kaliy hujayradagi boshqa kationlar miqdorining ko'payishiga va atrof eritmalarda kaliy konsentrasiyaning ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hujayradagi kaliy miqdori va o'sish jarayoni jadalligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Shu bois kaliy tanqisligida hujayralarning bo'linishi, cho'zilishi va o'sishi sustlashadi deb tahmin qilinadi.

Hozirgi kunda o'simliklarda oqsil sintezi va kaliy miqdori o'rtasida ijobiy munosabat borligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar to'plangan. Kaliy yetishmaganda fotosintez mahsulotlarining barglardan boshqa organlarga oqib o'tishi sekinlashadi, mahsuldarligi pasayadi.

Kaliyga nisbatan kritik (tanglik) davr rivojlanishning ilk davrlarida (urug' unib chiqqandan keyingi 15 kun ichida) kuzatiladi. Kaliyning eng ko'p miqdori odatda o'simliklarda biologik massa jadal to'planadigan davrda o'zlashtiriladi.

G'o'za shonalash davrigacha (unib chiqqandan 31 kun o'tgach) 2,8 %, shonalashdan gullashgacha (58-kun) 17,8 %, pishish oldidan (145-kun) 100 % kaliyni o'zlashtiradi. Bundan g'o'zada kaliyning o'zlashtirilishi ancha uzoq davom etishi ko'rilib turibdi.

O'simlik tarkibidagi kaliy miqdori faqat rivojlanish davrlari bo'yicha emas, balki tuproq-iqlim sharoitlari, agrotexnikaviy tadbirlar va ekin naviga bog'iq ravishda ham o'zgaradi.

Kaliy o'simlikdagi mexanikaviy elementlar, naysimon tutamlar va lub tolalarining rivojlanishiga, poyalarning yo'g'onlashishi va yotib qolishga chidamlilagini oshishiga yordam beradi, paxta zig'ir va kanop tolalarining hosili va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'simlik tana qismlaridagi kaliy miqdori o'suv davriga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Boshqa elementlarda kuzatilgani kabi kaliy ham qari (eski) barglardan yosh barglarga oqib o'tadi, ya'ni undan qayta foydalanish *reutilizasiya* sodir bo'ladi. Bu hodisa poyaning pastki qismlaridagi barglarni erta sarg'ayishida namoyon bo'ladi.

Ervchanligi va o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'ra tuproqdag'i kaliyni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- 1) *suvda eriydigan kaly* (o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladi);
- 2) *almashinuvchan kaly* (o'simliklar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi);
- 3) *harakatchan kaly* (suvda oson eriydigan va almashinuvchan kaliylar yig'indisi);
- 4) *almashinmaydigan-gidrolizlanadigan* yoki qiyin eriydigan kaly;
- 5) *kislotada eriydigan kaly* - yuqorida aytilgan to'rt xil kaliyni o'z ichiga olib, kuchli kislotaning qaynoq eritmasi($0,2n$ yoki 10 % li HSl) yordamida ajratib olinadi;
- 6) *almashinmaydigan kaly* (yalpi va kislotada eriydigan kaliylar o'rtaсидаги ayirma asosida topiladi).

Almashinuvchan va almashinmaydigan gidrolizlanadigan kaliylarning miqdori hisoblash yo'li bilan topiladi: almashinuvchan kaly - harakatchan va suvda eriydigan kaliylar o'rtaсидаги ayirmaga teng bo'lsa, almashinmaydigan-gidrolizlanadigan kaly - kislotada eriydigan va harakatchan kaly miqdorlarining ayirmasiga tengdir.

O'simliklarning oziqlanishida asosiy rol o'ynaydigan harakatchan kaliyning miqdori turli tuproq tiplarida yalpi kaliyning atigi 0,5-2,0 % ini tashkil qiladi.

Tuproqdag'i kaliy shakllarining muntazam ravishda bir turdan ikkinchi turga o'tib turishi aniqlangan. Masalan, o'simliklar tomonidan o'zlashtirilgan suvda eriydigan kaliyning o'rni almashinadigan kaly hisobidan to'ldiriladi. Almashinadigan kaliyning kamaygan qismi ma'lum muddatdan keyin almashinmaydigan-gidrolizlanadigan kaliy hisobiga to'ladi va hakazo.

Tuproqlardagi almashinuvchan kaliyning 10-25 % i suvda eruvchan, kislotada eriydigan kaliyning 5-25 % i almashinuvchan, yalpi kaliyning 2-15 % i kislotada eriydigan holatda bo'lishi ham tadqiqotlar asosida isbotlangan.

Agrokimyo fani va amaliyotida o'simliklar oziqlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan harakatchan kaliy miqdorini aniqlash muhim o'rinn tutadi.

Harakatchan kaliyning miqdori turli tuproqlarda turli usullar yordamida aniqlanadi. Masalan, bo'z tuproqlar va shuningdek, boshqa serkarbonat tuproqlarda *Machigin-Protasov* (1 % li ammoniy karbonat so'rimi), chimli-podzol va sur tusli o'rmon tuproqlarida *Kirсанов* (0,2n xlorid kislota so'rimi). qora tuproqlarda *Chirikov* (0,5n sirka kislota so'rimi), qizil va sariq tuproqlarda *Oniani* (0,1n sulfat kislota so'rimi), Boltiq bo'yi tuproqlarida *Egner-Rim-Domingo* (sut va sirka kislotalari hamda sirka kislotaning ammoniyli tuzlaridan tayyorlanadigan bufer eritma)usullaridan foydalaniadi.

3. O'simliklarni kaliy bilan oziqlanishi

Kaliy - o'simliklarning hujayra yadrosi va plastidlaridan tashqari, barcha qismlarida uchraydi. Ushbu elementning o'simlikdagi faoliyati xilma--xildir. O'simlik bargida kaliy 0,5-3, poya, somonida va turli ekinlarning donida 0,3-1,5 foizgacha bo'ladi. Kaliy ko'plab o'simliklarni o'sayotgan yosh qismlarida uchraydi.

Kaliy uglevodlarning bargda to'planishida va ularning o'simlikni boshqa qismlariga o'tishida qatnashib, hujayra va to'qimalarning o'zida suvni saqlab qolishga, tashqi muhitni noqulay sharoitlarga chidamli bo'lishiga va har xil kasallliklarga qarshi tura olish darajasini oshiradi.

Kaliy yetishmasligining belgilari barg chetlari va uchi qo'ng'irlashishida, plastinkalarda mayda zang dog'lar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

Asosiy oziq elementlarining hosil bilan o'zlashtirilib ketilishi,

1 tonna asosiy mahsulotga nisbatan kg hisobida

(Smirnov, Muravin ma'lumotlari).

<i>Ekinlar</i>	N	P ₂ O ₅	K ₂ O
Don			
Kuzgi bug'doy	37,0	13,0	23,0
Kuzgi javdar	31,0	14,0	26,0
Bahorgi bug'doy	47,0	12,0	18,0
Arpa	29,0	11,0	20,0
Soya	71,0	16,0	
Makkajo'xori	34,0	12,0	37,0
Paxta	50-60	15-20	60,0

Azot va fosfor bilan bir qatorda kaliy ham asosiy mineral oziq elementlaridan biri hisoblanadi. U azot va fosfordan farq qilib, o'simliklarni biror organik moddasi tarkibiga kirmaydi, balki o'simliklar hujayralarida ion formasida,

hujayra shirasida eruvchan tuzlar holida va qisman sitoplazma kolloidlari bilan beqaror adsorbsion komplekslar holida bo'ladi. O'simliklarning qarigan organlariga nisbatan yosh o'suvchan qism va organlarida kaliy ko'p bo'ladi. Oziq muhitda kaliy yetishmaganda u qari organ va to'qimalardan o'suvchan yosh organlarga oqib keladi va bu yerda qayta foydalaniadi.

Kaliyning o'simliklar organizmidagi fiziologik funksiyalari turli tumandir. U sitoplazma kolloidlarining fizik holatiga ijobiy ta'sir etadi, ularning suvliligini, bukuluvchanligini va qovushqoqligini oshiradi. Bu esa hujayralardagi moddalar

almashinuvi jarayonlari uchun, shuningdek o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligin oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Kaliy yetishmaganida va transpirasiya kuchayganida o'simliklar tezda turgorni yo'qotadi va so'lib qoladi. Kaliy bilan yaxshi taminlanganda o'simliklarning suvni saqlab turish qobiliyati kuchayadi va qisqa vaqt qurg'oqchilikka bardosh beradi.

Kaliyning fotosintez, oksidlanish jarayonlari intensiv-liligi va o'simlikda organik kislotalar hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir etishi, uning uglevod va azot almashinuvida ishtirok etishi isbotlangan. Kaliy yetishmaganida o'simlikda oqsil sintezi sekinlashadi natijada azot almashinuvi umuman bo'ziladi. Kaliy yetishmaganida oddiy uglevodlarning murakkab uglevodlarga aylanishi to'xtab qoladi.

Kaliy moddalarning barglardan boshqa organlariga qarab o'tishini kuchaytiradi, uglevod almashinuvida ishtirok etadigan fermentlarning, jumladan saxaraza va amilazaning aktivligini oshiradi.

Kaliy ta'sirida o'simliklarning sovuqqa chidamligi kuchayadi, bu hol shakar miqdorining ko'payishi va hujayra osmotik bosimining ko'tarilishi bilan bog'liq. Kaliy bilan yetarli darajada oziqlantirilganda o'simliklarning turli kasalliklariga chidamliligi, masalan, g'alla ekinlarining un shudring kasalligi, zang kasalligiga sabzavot ekinlari, kartoshka va ildizmevalilarning chirish kasalligini qo'zg'atuvchilariga chidamliligi ortadi. Kaliy mexanik elementlar lub tolalarining rivojlanishiga yordam beradi, shuning uchun poyalarning baquvvatligiga va yotib

qolishiga chidamliliga zig'ir va kanop tolalarining miqdori hamda sifatiga ijobiy ta'sir etadi.

Paxtachilikda paxta bargi va ko'sagining mikrosporioz kasalligi bilan kasallanishi o'simlikning kaliy bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'lib, ko'p yillik tajribalardan shu narsa ma'lumki kaliy bilan o'g'itlanmagan variantlarda bu kasallik kaliy bilan o'g'itlangan variantlarga nisbatan 1,5-2 barobar ko'payib ketdi va o'z navbatida hosilning texnologik sifatining ham pasayishiga sabab bo'ladi.

Kaliy yetishmaganida reproduktiv organlarning rivojlanishi to'xtaydi- shonalar va boshlang'ich to'p gullar rivojlanmay qoladi, don puch bo'ladi va unib chiqish darajasi pasayadi.

O'simliklarni kaliyga bo'lgan kritik davri ular rivojlanishining boshlang'ich fazalariga to'g'ri keladi (unib chiqqandan 15 kun -keyin). O'simlik kaliyning asosiy qismini biologik massasi intensiv o'sish davrida iste'mol qiladi. Donli ekinlar gullahgacha kartoshka, qand lavlagi, karam esa butun vegetasiya davrida kaliyni o'zlashtiradi. Kartoshka kaliyning asosiy qismini gullah va tuganak hosil qilish davrida, qand lavlagi ildiz meva hosil qilish davrida o'zlashtiradi.

-jadval

**Turli hil qishloq xo'jalik ekinlari tarkibidagi kaliyning
o'rtacha miqdori (quruq moddaga nisbatan % hisobida)**

Ekin turi	Mahsulot turi	K ₂ O, %	Ekin turi	Mahsulot turi	K ₂ O, %
G'o'za	Bargida	2,07	Kartoshka	Poyasida	3,70
	Poyasida	1,25		Tuganagida	2,40
	Chigitida	1,07	Tomat	Mevasida	5,60
	Ko'sak		Bodring	Mevasida	5,65
	pallasida	3,50	Beda	Pichanida	1,8
	Tolasida	0,55			

Har xil tuproqlarda kaliyning (K₂O) miqdori 0,5-3% gacha bo'ladi, kaliy miqdori ayniqsa ularning mexanik tarkibiga bog'liq. Kaliy tuproqlarning loyqa fraksiyasida ko'p bo'ladi. Shu sababli og'ir soz tuproq va qumoq tuproqlarda, qumli va qumloq tuproqlardagiga qaraganda kaliy ko'p bo'ladi. Trofli tuproqlarda kaliy juda kam (0,03-0,05%) bo'ladi ko'pchiliq madaniy qumoq tuproqlarda kaliy 2-2,5% ni tashkil etadi. Tuproqda kaliyning asosiy manbai kaliy minerallari bo'lib, O'rta Osiyo tuproqlarida bu ko'rsatkich 1-3% ni tashkil etadi. Kaliyning tuproqdagi umumiyligi miqdori azotga nisbatan 5-50, fosforga nisbatan 8-40 marta ko'p. Tuproqlarning haydalma qatlamida K₂O ning umumiyligi zahirasi 50-75 ming kg/ga ga to'g'ri keladi, lekin kaliyning asosiy qismi (98-99%) tuproqda erimaydigan va o'simliklar qiyin o'zlashtiradigan alyumosilikatli birikmalar holida bo'ladi. Tuproqdagi kaliy birikmalarini harakatchanlik darajasiga va o'simliklar o'zlashtira olishiga qarab kaliy quyidagi asosiy shakllarga bo'linadi:

Jarikov A.Ye. ma'lumotiga asosan, o'rta mintaqadagi bo'z tuproqlarning haydalma qatlamida o'rtacha 1 kg tuproqda 139-165 mg gacha almashinuvchi kaliy bo'ladi. So'nggi yillarda bir necha yillar davomida bir turdag'i ekin ekilib kelinayotgan O'rta Osiyo tuproqlarida almashinuvchi kaliyning miqdori tobora kamayib bormoqda. Buning sababi tuproqqa har yili azot bilan fosfor katta normada solinsada, kaliyli o'g'itlar yetarlicha berilmayotganligidir.

Qishloq xo'jalik ekinlarining kaliyga bo'lган ehtiyoji ularni qiyg'os gulga kirib hosil tugish davrida yanada kuchli bo'ladi. Kaliy yetishmaganda sariq dog'lar kun sayin ko'paya boradi, eski barglar esa och jigar rangga kiradi. O'simliklarning pastki va o'rta qismidagi barglari avval yashil va sariq yashil rangda bo'lib, so'ng tez orada qo'ng'ir rangli dog'larga aylanadi. Barg plastinkasi bilan barglarning chetlarida qo'ng'ir rangli to'qimalarhosil bo'ladi.

O'simlik barg sistemasining hamma qismi qorayib, qurishi hamda to'qilishi kaliyning yetishmasligidan dalolat beradi. Barglarning erta to'qilishi esa, hosilning kamayishiga va sifatiga ta'sir etadi. Masalan: paxta misolida olsak ko'sak atrofida har xil shirali dog'lar hosil bo'ladi, tola sifati past bo'ladi, tolasi qorayib tez o'ziluvchan bo'lib, qoladi Kaliy normadan past bo'lganda ekinlarning kattalikdagi asosiy poyasi noziq bo'lib yerga yotib qoladi.

Tuproq tarkibida oziq moddalar miqdorining turlicha, unum dorligining esa har xil bo'lishi, qishloq xo'jalik mutaxassislaridan o'simliklarning o'g'itlarga bo'lган ehtiyojini to'g'ri aniqlashni talab etadi.

O'simliklarni ildiz orqali oziqlanishi tekshirish maqsadida bir qator kimyoviy analiz metodlari ishlab chiqilgan. Hujayra shirasining kimyoviy tarkibi, o'sish davrining turli paytida o'simliklarning oziq moddalarga bo'lган ehtiyojini aniqlashga imkon beradi.

O'simlikdagi oziq elementlar tarkibini analiz qilish usuli ularning ma'lum reaktivlar bilan bo'yalishi yoki cho'kma hosil qilish xususiyatiga asoslangan. Tekshirilayotgan eritmalar tarkibi standart eritmalar bilan solishtirib ko'riladi.

Qishloq xo'jalik ekinlari uchun kaliy yetishmasligi belgilari dastlab eski barglarda kurinadi, barglar chetlaridan boshlab sargaya boshlaydi, keyinchalik barg chetlari va uchi qo'ng'ir rangga o'tadi, so'ngra qurib to'kila boshlaydi, barg xuddi yirtilganga uxshab qoladi. Kaliy yetishmasligi dastlab uncha talabchan ekinlarda namoyon bo'ladi. Kaliy yetishmaganda modda almashuvining biokimyoviy jarayonlari susayishi kuzatiladi.

Hozirgi vaqtida o'simliklar tarkibidagi kaliy miqdori va oqsil moddasi sintezi jadalligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Kaliy yetishmasligi fotosintez mahsuldorligi susayadi, bargdan fotosintez jarayoni mahsulotlarini boshqa organlarga kuchishi kamayishi aniqlangan

Qumoq mexanik tarkibli kulrang o'rmon, ishqorsizlangan qora tuproqlarda kaliy bilan o'rta va kam ta'minlangan sharoitlarda o'g'itlarning ekinlar hosiliga ta'siri yuqori bo'ladi.

Kaliyli o'g'itlar samarasi O'zbekiston eskidan haydaladigan tuproqlar sharoitida g'o'za yetishtirishda yanada yuqori bo'ladi.

Kaliyli o'g'itlarning samarasi ularni azotli va fosforli o'g'itlar bilan maqbul nisbatda qo'llanilganda yanada ortadi.

Kaliyli o'g'itlarning asosiy qismi kuzgi shudgorlashda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Xlorli sho'rланish sharoitida xlor saqlovchi o'g'itlar sho'r yuvishdan ilgari qo'llash tavsiya etiladi.

Yengil mexanik tarkibli tuproqlarda hamda sug'oriladigan sharoitda kaliyli o'g'itlarning bir qismi oziqlantirish uchun tavsiya etiladi.

4. Kaliyli o'g'itlar turlari.

Kaliyli o'g'itlarni keng miqyosda ishlatish Respublikamizda XX-asrning 60-yillaridan boshlab yo'lga qo'yildi. Sobiq Ittifoq davrida kaliyli o'g'itlar to'laligicha *Rusiya* (*Verxokamsk, Solikamsk*), *Belorus* (*Starobinsk*) va *Ukraina* (*Kalush-Galinsk*) konlaridan olinadigan xomashyolar asosida ishlab chiqilar edi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning o'zidagi bir qator konlarda, masalan, Turkmanistonning *Tubegatan, Qarluq konlari*, Qashqadaryo viloyatidagi *Tubakat*, Surxondaryo viloyatidagi *Xo'jaikon* konlaridan xomashyo olish va ulardan kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Xisob-kitoblarga qaraganda, birgina Surxondaryoning Xo'jaikon kaliy tuzlari Respublikamiz dehqonchiligin qariyb yuz yil davomida kaliyli o'g'itlar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Bu konlardan olinadigan tuzlarni kompleks qayta ishslash yo'l-yo'lakay brom, temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni ham olish imkonini beradi.

Deyarli barcha konlar (konlarning 92 % ga yaqini) xloridli va sulfatli xomashyo beradigan konlar toifasiga kiradi va ulardan olinadigan o'g'itlar ham xlorli hamda sulfatli kaliyli o'g'itlar deb yuritiladi.

Xlorli kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo silvinit (tarkibida 12-15 % K_2O tutadi) bo'lib, u silvin(KCl) va galit ($NaCl$) aralashmasidan iboratdir.

Sulfatli kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishda kainit, *langbeinit* va *alunitdan* foydalilanildi.

Sanoat asosida olinadigan kaliyli o'g'itlar

Kaliy xlorid (KSl). Eng keng tarqalgan kaliyli o'g'it hisoblanib, ishlab chiqariladigan kaliyli o'g'itlarning 85-90 % ini tashkil qiladi. Tarkibida 53,7-60,0 % gacha K_2O tutadi. Davlat andazasi bo'yicha kaliy xloridi namligi 1 % dan ko'p bo'limgan, kulrang jilvaga ega pushti va oq kristallarning aralashmasi holida ishlab chiqariladi.

Kaliyli tuz ($KCl \cdot mKCl \cdot nNaCl$). Kulrang va pushti kristallar tutgan, kaliy xloridi va silvinit aralashmasidan iborat o'g'it.

Davlat andazasi bo'yicha namligi 2 % dan oshmasligi, tarkibidagi K_2O ning miqdori 40 % dan kam bo'lmasligi kerak. Havodan nam tortib, tashish va saqlash jarayonida mushtlashib qoladi.

Kaliy sulfat (K_2SO_4). Oq tusli (ba'zan sarg'ish jilvaga ega) mayda kristall zarrachali kukun. Tarkibidagi namlik 1,2 % dan kamroq, K_2O ning miqdori 46-50 % atrofida. Mushtlashib qolish ehtimoli kam, xaltalarda yoki ochiq holatda tashiladi.

Kalimagneziya ($K_2SO_4 \cdot MgSO_4 \cdot 6H_2O$). Kulrang tusdagi mayda kukun yoki pushti donachalar holida ishlab chiqariladi. Tarkibida 29 % K_2O , 9 % MgO tutadi, namligi 5 % atrofida. Mushtashmaydi. Qog'oz va polietilen qoplarda yoki ochiq holda tashiladi. Kaliy sulfat kabi uni ham xlor ioniga sezgir va kaliy bilan bir qatorda magniyni ko'p talab qiladigan ekinlar (kartoshka, zig'ir, beda va boshqalar)ga, ayniqsa, tarkibida magniy kam bo'ladigan tuproqlarga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Kaliyli-magniyli konsentrat. Kulrang tusli donador o'g'it. Namligi 1,5-7,0 %. Tarkibida 18,5 % K_2O va 9 % ga yaqin MgO mavjud. Mushtashmaydi, ochiq holatda tashiladi. Xlorga ta'sirchan ekinlarga qo'llaniladi.

Tabiiy kaliyli tuzlar

Silvinit ($KSl \cdot NaCl$). Tarkibida 14-18 % K_2O , 34-38 % Na_2O va 52-55 % Cl (yoki 75-80 % $NaCl$) bo'ladi. Orasida ko'k kristallari bo'lgan kulrang-qo'ng'ir tusli, 1-4 mm kattalikdagi (4 mm dan yirik fraksiya 20 % dan kam) maydalangan jins. Suvda yaxshi eriydi. Gigroskopikligi kam, lekin havoning namligi yuqori bo'lgan sharoitlarda saqlansa, nam tortadi, quritilganda mushtashib qoladi.

Kainit - $KSl \cdot MgSO_4 \cdot 3H_2O$ dan tashqari ko'p miqdorda $NaCl$ tutgan aralashma. Tarkibida 10-12 % K_2O , 8 % ga yaqin MgO , 40 % atrofida Cl va 35 % Na_2O tutadi.

Kainitli va kainit-langbeynitli jinslarni maydalash yo'li bilan olinadi. Asosiy o'g'it sifatida ishlatiladi. Magniy bilan kam ta'minlangan tuproqlarda qandlavlagi va boshqa ildizmevalilarga qo'llash tavsiya etilgan.

Karnallit ($KSi \cdot MgCl_2 \cdot 6H_2O$ $Q NaCl$). maydalangan ruda, 12-13 % K_2O tutadi. O'ta gigroskopik, mushlashib qolish xususiyatiga ega. Boshqa kaliyli o'g'itlarga nisbatan kam ishlataladi.

Kaliyli o'g'it sifatida ishlataladigan sanoat chiqindilari

Potash (K_2CO_3). Fiziologik jihatdan ishqoriy kaliyli o'g'it. Tarkibida 52-55 % gacha K_2O tutadi. Nefelindan alyuminiy olish jarayonida chiqindi sifatida ajralib chiqadi. Xlorga ta'sirchan ekinlar uchun eng yaxshi ballastsiz o'g'it. Lekin fizikaviy xossalari yomon - o'ta gigroskopik, qovushuvchan va tez qotib qoladi, yaxshi sochilmaydi. Tuproqqa kiritish oldidan uni 1:1 nisbatda torf yoki chirindi bilan aralashtirish lozim.

Kul - tarkibida kaliy, fosfor, kalsiy va aksariyat mikroelementlar tutgan qimmatli o'g'it. Shuning uchun ham akademik D.N.Pryanishnikov kuldan o'g'it sifatida foydalanish masalasiga alohida e'tibor bergen.

Yog'och, o'simliklarning poya va somonlari kuydirilganda hosil bo'ladigan kul tarkibida ko'p miqdorda K_2CO_3 va $KHCO_3$ mavjud.

Kul tarkibidagi oziq elementlarining miqdori ko'p jihatdan daraxt yoki ekin turi, shuningdek, go'ng, torf va toshko'mirning sifatiga bog'liqdir (31-jadval).

Kul tarkibidagi kaliyning asosiy qismi suvda yaxshi eriydigan kaliy karbonat (K_2CO_3) shaklida bo'ladi. Kaliyning bu shakli barcha qishloq xo'jalik ekinlarining oziqlanishi uchun yaroqlidir.

Xlor-kaliy elektroliti. Bu o'g'it kaliy xloridning turli birikmalar (5 % MgO , 5 % Na_2O va 50 % gacha xlor) bilan aralashmasidir.

Xlor-kaliy elektroliti - *karnallit*dan magniyni ajratish jarayonida olinadigan chiqindidir. O'simliklarga ta'siri bo'yicha kaliy xloridga yaqin. Serchang, sariq tusli mayda kristall kukun. Tarkibida 31,6-45,5 % K_2O mavjud, mushtlashmaydi(tarkibidagi nam miqdori 4 % gacha yetishi mumkin). Qog'oz qoplarga joylab yoki ochiq holatda tashiladi. Asosiy o'g'it sifatida barcha qishloq xo'jalik ekinlariga ishlatalish mumkin.

Sement changgi (gardi). Tarkibida karbonatlar, bikarbonatlar va kaliy sulfat holida o’rtacha 14-15 % K_2O , shuningdek, 19 % CaO , 3-4 % MgO va 1 % atrofida Na_2O tutadi.

Unga xos bo’lgan salbiy fizikaviy xossalarni (changish, kuchli gigroskopiklik) donadorlashtirish yo’li bilan yo’qotish mumkin. Xlorga ta’sirchan ekinlarga asosiy o’g’it sifatida kiritikflb.

Kaliyli o’g’itlarni qishloq xo’jalik ekinlariga qo’llash

Markaziy Osiyo tuproqlarida, ayniqsa, paxta yetishtiriladigan maydonlarda, kaliyli o’g’itlarni qo’llashning ahamiyati kattadir. G’o’za azotli va fosforli o’g’itlar fonida kaliyli o’g’itlarga kuchli ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, bedadan bo’shagan maydonlarda paxta yetishtirishda ko’p miqdorda kaliyli o’g’itlar ishlatalishga to’g’ri keladi, chunki beda uch -to’rt yil davomida yetishtirilganda, tuproqdan ko’p miqdordagi kaliyni olib chiqib ketadi.

Bo’z tuproqlarda kaliyli o’g’itlarni qo’llash hisobiga har *ga* maydondan o’rtacha 3,8-4,8 s qo’shimcha paxta hosili olish mumkin. Lekin olinadigan qo’shimcha hosil miqdori ko’p jihatdan tuproqlarning almashinuvchan kaliy bilan ta’minlanish darajasiga bog’liq. Almashinuvchan kaliyning miqdori bir *kg* tuproqda 140-170 *mg* bo’lganda, hektariga 100 *kg* K_2O qo’llash 2,7 s qo’shimcha hosil bergen bo’lsa, almashinuvchan kaliyning miqdori 70-80 *mg* bo’lgan tuproqlarda qo’shimcha hosil 6,4 s ni tashkil qilgan.

Kaliyli o’g’itlar azotli va fosforli o’g’itlar bilan birlashtirilganda yuqori samara beradi.

Kaliyli o’g’itlar yillik me’yorining asosiy qismi kuzgi shudgor ostiga kiritiladi. Kuzda qo’llanilgan kaliyli o’g’itlar tarkibidagi xlor yog’in-sochinlar ta’sirida o’simliklarning ildiz tizimi tarqaladigan qismidan pastga yuvilib ketadi va xlorsuymas ekinlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi.

Faqat qumli va yengil qumoqli tuproqlardagina kaliyli o’g’itlarni bahorda qo’llash mumkin. Sug’oriladigan sharoitlarda kaliy yillik me’yorining bir qismini nihollarni qo’shimcha oziqlantirish uchun ajratish yaxshi samara beradi.

Respublikamizda paxta va boshqa ayrim texnikaviy ekinlarga belgilangan kaliy me'yorining 50 % i qo'shimcha oziqlantirish sifatida ishlataladi.

Kungaboqar, tamaki, sabzavot ekinlari, qandlavlagi, xashaki ildizmevalilar, kartoshka, ko'k massa uchun yetishtiriladigan ekinlar va mevali daraxtlar kaliyga o'ta talabchan o'simliklar jumlasiga kiradi. Bu ekinlar birinchi navbatda kaliyli o'g'itlar bilan ta'minlanishi lozim.

Lekin tamaki, tok, mevali va sitrus daraxtlari, ko'pchilik sabzavot ekinlari, grechixa, kartoshka, zig'ir, dorivor va ifor moyli o'simliklar tarkibida xlor tutmagan kaliyli o'g'itlarni xush ko'radi. Xlor ta'sirida ular hosilining sifati keskin pasayadi (tamaki bargining yonuvchanligi zig'ir tolasining sifati va kartoshkadagi kraxmal miqdori kamayadi).

Zig'ir va ekinbop nasha kaliyga uncha talabchan emas, lekin ularning ildiz tizimini yaxshi rivojlanmasligi va tuproq tarkibidagi kaliyni yaxshi o'zlashtira olmasligini hisobga olgan holda ularga ma'lum miqdorda kaliyli o'g'itlarni qo'llash lozim.

Donli ekinlar, qandlavlagi, xashaki ildizmevalilar, oshlavlagi va boshqa bir qator ekinlar kaliyli o'g'it turiga befarq bo'lib, tarkibida xlor tutgan kaliyli o'g'itlar qo'llanilganda ham hosil miqdori oshadi.

Qandlavlagi uchun tarkibida ko'p miqdorda natriy tutgan kaliyli o'g'itlar foydali hisoblanadi va bu maqsadda silvinit va kainit kabi tabiiy kaliyli tuzlarni ham ishlatish mumkin.

Xlorga sezgir o'simliklarga(masalan, kartoshka), kaliy sulfat, kalimag yoki kaliyli-magniyli konsentratlarni qo'llash lozim. Kaliyli tuz yoki kainitni bu o'simlikka qo'llab bo'lmaydi.

Turli tuproq-iqlim mintaqalarida amalga oshirilgan tajribalarning ko'rsatishicha, tarkibida xlor tutgan kaliyli o'g'itlar kartoshka tugunagidagi kraxmal miqdorini xlorsiz kaliyli o'g'itlarga nisbatan 7-15 % ga kamaytiradi.

Kaliyli o'g'itlarni azotli hamda fosforli o'g'itlar bilan birgalikda qo'llashning yaxshi bir tomoni fosforli o'g'itlar tarkibidagi kalsiy kaliyning (shuningdek, uning yo'ldoshi natriyni) ayrim paytlardagi salbiy ta'sirini mo'tadillashtiradi.

Serkarbonat tuproqlarda kalsiy va kaliy o'rtaqidagi *antagonizm* yaqqol namoyon bo'ladi, shu sababdan bu tuproqlarda, ayniqsa zig'ir va kartoshka ostiga nisbatan yuqori me'yordagi kaliyli o'g'itlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunga qadar tuproqqa kiritiladigan kaliyning 50-60 % i birinchi yilda ekiladigan ekin tomonidan o'zlashtiriladi degan fikr mavjud. Lekin so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, chimli podzol tuproqlarda kaliy xlorid tarkibidagi kaliyning o'zlashtirilish koefisiyenti 25-30 % ni, ayrim qumoqli tuproqlarda 34-37 % ni tashkil qiladi. Bu tuproqlarda ikkinchi yili o'simliklar tomonidan atigi 2-5 % kaliy o'zlashtiriladi.

Ko'p yillik tadqiqotlar asosida bir *ga* maydonga 100 kg K₂O kiritilganda, donli ekinlardan 0,2-0,3 *t*, kartoshkadan 2,0-3,3 *t*, qandlavlagidan 3,5-4,0 *t*, paxtadan 0,1-0,2 *t*, zig'ir tolasidan 0,1-0,15 *t* qo'shimcha hosil olish mumkinligi aniqlangan.

5. Kaliyli o'g'it turlarini g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va xosildorligiga ta'siri

G'o'za nihollarini unib chiqish tezligiga nav xususiyatlaridan tashqari, tuproq-iqlim sharoitlari va agrotexnik jarayonlar ham turlichcha ta'sir ko'rsatadi.

Chigitlar dalaga ekilgandan so'ng, namlik va haroratga bog'liq holda hamda har bir navning hususiyatiga qarab nihollarni paydo bo'lismish jarayoni turlichcha bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni kursatadiki bahor faslida haroratning yuqori bo'lishi ekilgan chigitlarning barvaqt unib chiqishiga sabab bo'lib, o'tkazilgan xisoblarni ko'rsatishicha (4.1-jadval) 27 apreldan boshlab variantlar bo'yicha (1-5) 9,1 dan 119 foizgacha nihollarni paydo bo'lishi kuzatilgan. 3-may sanasida tajribani nazorat variantiga (2) nisbatdan 48,7 dan 49 foizgacha va keyingi o'tkazilgan kuzatuvda (6.05) 66,5 dan 69,9 foizgacha chigitlardan nihollarni unib chiqqanligi ma'lum bo'lgan. Ammo, tajribalarda o'r ganilgan variantlar o'rtasida nihollarning paydo bo'lismish jarayoni bo'yicha, sezilarli farq kuzatilmagan. Shuni takidlash lozimki, tajriba dalasida yer chigit ekishga bir xilda sifatli qilib, tayyorlanganligi sababli, nihollar seravj bo'lib, variantlar orasida farq bo'lmasdan bir tekisda ko'chat olinishi ta'minlanilgan (-jadval).

-jadval

G'o'za nihollarini unib chiqish dinamikasi (foiz hisobida,Oripov R.,Jumayev Sh. 2008 y)

Tajriba variantlari	NPK ning o'zaro nisbatlari	Kuzatuv olib borilgan sanalar			
		27.04	30.04	3.05	6.05
1	-	9,1	28,7	47,8	61,7
2	1:07	9,2	29,5	48	65,5
3	1:0,7:0,2	10,5	29,6	48,7	66,5
4	1:0,7:0,4	11,5	30,6	48,8	68,7
5	1:0,7:0,6	11,9	31	49	69,9

Olib borilgan tajribalardan olingen ma'lumotlar tahlil etilganda ma'dan o'g'itlarning o'zaro nisbatlarini o'zgarishi g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri katta ekanligi aniqlangan.

-jadvalidagi ma'lumotlarni ko'rsatishicha, 1-iyun sanasida o'tkazilgan fenologik kuzatuvda havo haroratining yuqoriligi sababli barcha o'rganilgan variantlarni g'o'zaning bo'yini balandligi va ularda hosil bo'lgan chin barglar sonini ortiqligi ma'lum bo'lgan, ya'ni variantlar bo'yicha nihollarning bo'yi o'rtacha 13,2-15 sm gacha bo'lib, chinbarglar soni 4,7-5 donani tashkil qilgan.

Kaliyli o'g'itlar me'yori oshishi bilan g'o'zaning bo'yini ham sezilarli darajada yuqori bo'lganligi ma'lum bo'lgan.

Tajribalarning variantlarida ko'rinish turibdiki kaliyli o'g'itining oshib borishi bilan (3 va 4 variantlar) g'o'za bosh poyasining bo'yi o'rtacha 14,7-14,9 sm ni tashkil etgan bo'lsa, o'g'itning gektariga 150 kg K₂O bo'lgan variantda (5 variant) g'o'zaning balandligi o'rtacha 14,3 sm bo'lgan.

-jadval

Kaliyli o'g'itlarning g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri(Oripov R, Jumayev Sh. 2008y)

Tajriba variantlari	NPK ning o'zaro nisbati	1.06		1.07			1.08				1.09	
		O'sim- lik bo'yi, sm	Chin- barglar soni, dona	O'sim- lik bo'yi, sm	Hosil shox- lari soni dona	Shonalar soni dona	O'sim- lik bo'yi, sm	Hosil shox- lari soni dona	Ko'sak- lar soni, dona	Tugun- chalar soni, dona	Ko'sak- lar soni, dona	Shundan ochil- ganlar soni
1	-	13,2	4,7	46,3	7,6	8,9	89,4	10,6	6,5	4,1	10,8	1,7
2	1:0,7	13,9	4,5	47,0	7,6	9	89,7	10,8	6,6	4,4	10,9	1,8
3	1:0,7:0,2	14,7	4,7	48,0	7,8	9,2	89,8	10,9	6,7	4,7	11	1,9
4	1:0,7:0,4	14,9	4,9	48,4	7,9	9,4	90,0	11,2	6,9	4,9	11,2	2,6
5	1:0,7:0,6	15,0	5	49	8	9,9	90,4	11,9	7	5	11,5	2,8

Demak, g'o'zalarni 1-iyundagi kuzatuvda kaliyli o'g'itning K₂O 100 kg/ga qo'llanilgani me'yorlarga (50, 100 kg/ga) boshqa o'rganilgan variantlarga nisbatan yuqoriligi hisobga olingan.

1-iyun sanasida kaliyli o'g'itlar nisbatlarini o'zgarishi natijasida o'simliklar bo'yini o'zgarishi sezilmagan bo'lsada, ammo, chinbarglar soni o'g'it ortishi bilan kam bo'lганligi sezilgan.

G'o'zalarda keyingi davrlarda o'tkazilgan fenologik kuzatuvlarni natijalari tahlil etilganda ma'lum bo'lishicha, o'g'itlar nisbatlarini ta'siri yaqqol ko'zga tashlanganligi aniqlangan.

1-iyul sanasidagi kuzatuvlarda ham kaliyli o'g'itning me'yorlari ortishi bilan g'o'za bosh poyasini balandligini nisbatan yuqoriligi sezilarli darajada ma'lum bo'lgan, hosil shohlari va shonalar sonini tahlil qilsak, ma'danli o'g'itlarning nisbati oshishi bilan hosil shoxlari soni va shonalar sonini ko'payganligi aniqlangan.

O'g'itlarning o'zaro nisbatlarini o'zgarishi ya'ni kaliyli o'g'itining ko'payishi oz bo'lsada hosil shoxlari va shonalarni sonini ortishiga olib kelganligi kuzatilgan.

1-avgust sanasidagi kuzatuvlar tahlil qilinganda esa, kaliyli o'g'itlarning yillik me'yorlari ortishi bilan g'o'za o'simligining bosh poyasini balandligini ko'payishi ham kuzatilgan. Lekin shuni ta'kidlab o'tish lozimki tadqiqotning 5 variantida kaliyli o'g'itning yillik me'yorlari 150 kg/ga ni tashkil qilganda g'o'zalarning bo'yi, hosil shohlari, ko'saklar va tugunchalar soni ko'p bo'lганligi hisobga olingan, bunga sabab, bizning fikrimizcha o'g'itning me'yorida bo'lганligi, ko'pligi o'simlikka ta'sir ko'rsatishi va ozuqani ko'p o'zlashtirganligi tufayli bo'lishi mumkin (4.2-jadval).

Tajribanining 4- variantida g'o'za o'simligining balandligi o'rtacha 80,1 sm hosil shoxlari soni 9,6 donani tashkil etgan.

Kaliyli o'g'itlarning me'yorlari 100 kg/ga bo'lgan variantda esa, g'o'zaning bosh poyasini o'rtacha balandligi 90,0 sm ni, hosil shoxlari esa 11,2 donani

tashkil qilgan. Barcha o'rganilgan variantlarda eng ko'p hosil shoxi kaliyli o'g'itlarning gektariga 150 kg/ga qo'llanilgani va o'g'itlarning o'zaro nisbati 1:0,7:0,6 bo'lган variantlarda hisobga olingan.

Tajriba dalasidagi g'o'zalarda to'plagan ko'saklar soni 1-avgust sanasida o'rtacha 2-3 variantlarda 6,7-6,9 donani, 4 variantda esa 7 donani tashkil etib, eng ko'p ko'saklarni soni har bir o'simlikka hisoblanganda kaliyli o'g'itning gektariga 150 kg qo'llanilgan variantlarda aniqlangan.

1-sentyabr sanasidagi fenologik kuzatuvlarni ko'rsatishicha, har bir g'o'zaga to'g'ri keladigan ko'saklar soni, o'g'itlarning o'zaro nisbatlari 1:0,7:0,6 bo'lган variantlarda o'rtacha 11,5 donagacha bo'lganligi hisobga olingan. Qolgan variantlarda (3-4) esa tegishli ravishda ko'saklar miqdori o'rtacha 11-11,2 donani tashkil qilgan.

Kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori ortishi bilan ko'saklar sonini bir muncha oshganligini anqlangan. (-jadval).

Tajribaning 1-sentyabr sanasida o'rganilgan kuzatuvlarni (ko'sak soni va shundan ochilganlar soni) tahlil qiladigan tajribaning barcha variantlarida (3, 4, 5) nazoratga nisbatda oshib borishi hisobga olingan.

Tajriba dalasidagi o'rganilgan variantlardagi g'o'zalarning 1-sentyabrdagi to'plagan ko'saklarini ochilishi tahlil qilinganda ma'lum bo'lishicha, kaliyli o'g'itlarning ortishi bilan, variantlarda o'stirilgan g'o'zalarning ko'saklarini ochilishi, o'g'itlarning o'zaro nisbatlari 1:0,7:0,6 bo'lган variantlardagi g'o'zalarga nisbatan sezilarli darajada orqada qolishi ma'lum bo'lган (-jadval.).

Ma'lumki, g'o'zalarning gullah va pishish fazalariga kirishi har bir navning irsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, tashqi omillarning ta'sirida katta o'zgarishlar bo'lishi tadqiqotchilar tomonidan isbotlanilgan. Bajarilgan tajribalardan olingan ma'lumotlarni ko'rsatishicha, g'o'zalarning ozuqa rejimlari ta'sirida gullah va pishish fazalarini jadalligini turlicha bo'lishligi aniqlanilgan. Tajribaning 4.3-jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, tajriba dalasidagi g'o'zalarning gullah fazasini boshlanishi 30-iyunda kuzatilib, ommaviy (massaviy) gullah 6-iyulda qayd etilgan. Olib borilgan birinchi kuzatuvda (30-iyunda) tajribaning 4 variantida (K_2O 100 kg/ga) kaliyli o'g'it ortishi bilan gullah jarayoni jadallahshgan, ammo, o'g'itlash nisbati 1:0,7:0,6 bo'lgan variantda (5) bir muncha yuqori bo'lganligi aniqlangan. Tajribaning 1,2,3 va 4 variantlarda g'o'zalarni gullahini kechikishi kuzatilgan (-jadval).

Keyingi kuzatuvlarda (3.07) ham g'o'zalar 1:0,7:0,6 nisbatda o'g'itlangan variantlar 1:0,7:0,6 nisbatga qaraganda gullah fazasini jadallahshgani hisobga olingan. Tadqiqotda kaliyli o'g'itning me'yori 150 kg/ga ortgani sari gullah jarayoni susayib borgan. Bu kuzatuvda ham o'g'itlarni o'zaro nisbatlari 1:0,7:0,6 bo'lgan varianda (5) g'o'zalarda gullah fazasini tezlashganligi ma'lum bo'lgan, ammo, 6-iyulda, ayniqsa ohirgi 9-iyul sanasidagi o'tkazilgan hisoblarni ko'rsatishicha g'o'zalarni gullah fazasiga kaliyli o'g'itning ta'siri yaqqol ko'zga tashlangan. Tajribaning 1,2,3,4 variantlardagi g'o'zalar 9-iyul sanasida tegishli ravishda o'rtacha 77, 79, 81 va 85 foiz gullagan bo'lsa, 1:0,7:0,6 nisbatda o'g'itlangan variantdagi g'o'zalar 86 foiz gullaganligi qayd etilgan. Ma'dan o'g'itlarning o'zaro nisbatlarida kaliy elementini oshirilishi 1:0,7:0,6 g'o'zalarning gullah fazasini jadallahshishida ijobiy roli borligi kuzatilgan.

Tajribaning -jadvalida g'o'zalarda to'plangan ko'saklarning ochilish jarayonini borishi keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari tahlil etilganda ma'lum bo'lishicha kaliyli o'g'itning ortishi bilan barcha o'tkazilgan sanalardagi kuzatuvlarda ko'saklarning

ochilishini yaxshi borganligi aniqlangan. Tajriba dalasidagi g'o'zalarning pishish fazasini 30-avgust sanasidagi kuzatuvda tajribaning 5 variantida g'o'zalar o'rtacha 10 foiz pishish fazasiga kirganligi ma'lum bo'lga bo'lsa, 1,2,3, va 4 variantlardagi g'o'zalarda ko'saklarni tegishli ravishda 6, 7, 8, va 9 foiz ochilganligi qayd etilib, kaliyli o'g'itlar kam qo'llanilgan variantlardagi g'o'zalarga qaraganda bir muncha oldinda ekanligi ma'lum bo'lga.

Shunga o'xhash ma'lumotlar keyingi sanalarda o'tkazilgan kuzatuvlarda ham aniqlangan.

11-sentyabr sanasidagi oxirgi kuzatuvda olingan ma'lumotlar tahlil qilinganda, ma'lum bo'lishicha, g'o'zaga kaliyli o'g'itning yillik me'yori K₂O 150 kg/ga (5 variant) 1, 2, 3 va 4 bo'lga variantda ko'saklarning 81 foiz miqdori ochilgan bo'lsa, qolgan variantlarda esa tegishli ravishda 72, 73, 73, 78 foiz ko'saklarni ochilishi qayd etigan.

Umuman olganda tajribada qo'llanilgan ma'dan o'g'itlarning o'zaro nisbatlarida kaliy elementini oshirilishi oz bo'lsada g'o'zalarning pishish fazasini jadallahishida roli borligi aniqlangan (-jadval).

-jadval

Kaliyli o'g'itlarning g'o'zalarni gullah jarayoniga ta'siri, foiz(Oripov R., Jumayev Sh. 2008y.)

Tajriba variantlari	NPKning o'zaro nisbatlari	Kuzatuv olib borilgan sanalar			
		30.06	3.07	6.07	9.07
1	-	12	22	62	77
2	1:0,7	13	23	62	79
3	1:0,7:0,2	13	24	63	81
4	1:0,7:0,4	14	25	65	85
5	1:0,7:0,6	15	26	69	86

-jadval

Kaliyli o'g'itlarni g'o'zalarning pishish fazasiga ta'siri, foiz(Oripov R., Jumayev Sh. 2008 y.)

Tajriba variantlari	NPKning o'zaro nisbatlari	Kuzatuv olib borilgan sanalar				
		30.08	2.09	5.09	8.09	11.09
1	-	6	12	25	51	72
2	1:0,7	7	12	29	54	73
3	1:0,7:0,2	8	13	30	55	73
4	1:0,7:0,4	9	14	32	57	78
5	1:0,7:0,6	10	16	32	59	81

Olib borilgan dala tajribalaridan olingan ma'lumotlarni ko'rsatishicha, g'o'za hosildorligi va uning miqdoriga tashqi muhit omillaridan kaliyli o'g'itlarning ta'siri katta bo'lishligi ma'lum bo'lgan.

Jadvalda keltirilgan raqamlardan ko'rinish turibdiki, o'g'itlash nisbatlarini 1:0,7:0,6 bo'lgan shoroitda o'stirilgan g'o'zalarning hosildorligi nazorat variantiga nisbatan hosildorligi sezilarli darajada yuqori bo'lishi hisobga olingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki tajribada kaliyli o'g'it me'yoring oshib borishi bilan hosildorlik ham oshib borgan. Tajribani 1, 2, 3, 4 variantlarida tegishli ravishda 19,0; 21,9; 22,9; va 25,1 s/ga hosil olingan bo'lsa, ma'dan o'g'itlarning o'zaro nisbatlari 1;0,7;0,6 nisbatda o'g'itlangan variantda, ya'ni kaliy me'yori 150 kg/ga, g'o'za hosildorligi o'rtacha 26,5 s/ga bo'lganligi aniqlangan.

Tajriba dalasida eng yuqori paxta hosili (26,5 s/ga) kaliyli o'g'itning yillik me'yori har gektar maydon hisobiga K₂O 150 kg/ga ni tashkil etganda, ya'ni oziqa elementlarining o'zaro 1;0,7;0,6 nisbatida bo'lgan variantidan olingan (- jadval).

-jadval

Variantlar bo'yicha g'o'za hosildorligi (s/ga)(Oripov R., Jumayev Sh.,

2008 y)

Variantlar	Qaytariqlar bo'yicha hosildorlik				O'rtacha hosildorlik s/ga	Nazoratga nisbatan farqi s/ga (+,-)
	I	II	III	IV		
1	18,4	20,5	21,5	15,8	19,0	
2	22,5	23,6	22	19,5	21,9	+2,9
3	20,3	23,5	22,2	25,6	22,9	+39
4	26,3	24,2	23,9	26,0	25,1	+6,1
5	26	27,1	26,8	26,5	26,5	+7,5

6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralar.

Bugungi kunning eng dolzarb muommosi bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning tasiri va salbiy oqibatlari yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini ishslashdan iborat.

Dastlab bu inqiroz AQSHda Ipoteka kreditlashtirish tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib yirik banklar va moliyaviy tizimlarning likvidlik, ya'ni to'lov qobilyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishga olib keldi. Bularning barchasi o'z navbatida ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish suratlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq. Ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz bo'yicha investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijasida qariyib 250 milliard so'mlik asosiy fondga ega bo'lган jami 423 ta ob'ekt, jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to'qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o'rmon xo'jalik sohasida 58 ta, kimyo va neft'kimyo sanoatida 13 ta, farmaseftika tarmog'ida 8 ta ob'ekt ishga tushirildi.

2008-yilda ishga tushirilgan va hozirgi kunda qurilayotgan yirik ishlab chiqarish inshoatlari qatorida Farg'ona vodiysi elektr energiyasi bilan muntazam ta'minlash imkonini beradigan, uzunligi 165 km yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi-o'zbekiston yuqori kuchlanishli elektir uzatish liniyasi barpo etilganini alohida takidlash joiz sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini "Sug'diyona" kuchlantirish stansiyasi bilan bog'laydigan, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektir ta'minoti ob'ektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. Shuningdek, 2008-yili 2 ming 600 kilometrdan ortiq ichimlik suvi hamda foydalanishga topshirildi.

Ishtimoiy soha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustivor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-xunar kolleji va 14 ming 700 o'rini 23 ta akademik litsey qurildi va

rekanstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekansturuksiya qilindi. Shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshoati, 26 ta qishloq vrachlik punkiti ba 7 mln 240 ming kv metr turar joy binolari va boshqa ob'ektlar qurildi.

